

**SHAXSDA O'Z-O'ZINI TARBİYALASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.****Musurmonov Dilshod**

Termiz davlat universiteti

Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

**S.B. Almardanova**

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti

Psixologiya kafedrası dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19224071>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada shaxs xarakterining shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyati, insonning o'z kamchiliklarini anglashi, ularni bartaraf etishga intilishi, ijobiy axloqiy hamda irodaviy sifatlarni rivojlantirishining yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'z-o'zini tarbiyalash, shaxs, iroda, qat'iyat, sabr-matонат, o'z-o'zini anglash, axloqiy sifatlari, o'smirlik davri, shaxs kamoloti.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о важности самообразования в формировании характера человека, о способах осознания собственных недостатков, стремления к их устранению и развития позитивных моральных и волевых качеств.

**Ключевые слова:** самообразование, личность, воля, целеустремленность, терпение, самосознание, моральные качества, подростковый возраст, личностная зрелость.

**Annotation.** This article presents information about the importance of self-education in the formation of a person's character, the ways in which a person can realize his own shortcomings, strive to eliminate them, and develop positive moral and volitional qualities.

**Keywords:** self-education, personality, will, determination, patience, self-awareness, moral qualities, adolescence, personal maturity.

Barcha zamon va davrlarda ham shaxs kamolotining muhim omili ekanligi yuqori o'rinda turadi. Inson bolasi jamiyatda, odamlar orasida shaxslararo munosabatlar qurshovida bo'lar ekan doimiy rivojlanishni o'z boshidan kechiradi. Shuningdek, o'smirlik davrida o'z-o'zini anglash jarayonining kuchayishi, jamoa, o'qituvchi va ota-onaning tarbiyaviy ta'siri orqali yoshlarning xarakterini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada qat'iyat, sabr-matонат, tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantirishning ahamiyati ham ochib berilgan.

Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bolgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Kishi xakteri faqat pedagoglar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir etishning samarasi bo'libgina qolmay, balki o'z-o'zini tarbiyalashining ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning ayrim sifatlari uchun o'zi javobgardir. O'z xakterini tarbiyalashda u kishi, awalo, yaxshi fazilatlarini, shaxs idealini o'zida tarbiyalab yetkazishni ko'zda tutmog'i lozim. Shu bilan bir vaqtda kishi o'z xakteridagi salbiy tomonlarni o'zi tan olishi, kamchiliklariga o'zi iqror bo'lishi kerak.

O'z kamchiliklariga o'zi iqror bo'lish kishi xakterining ijobiy, progressiv xislatidir. O'z kamchiliklariga iqror bolish kishini o'z-o'zini tarbiyalash yo'liga boshlaydi. O'z kamchiliklariga iqror bolmaslik, ulami ko'rmaslik kishi xakterining eng yomon xususiyatidir.

O'z kamchiliklarini ko'ra bilmagan odam oldinga qarab harakat qilishga, o'sish va kamolotga yetishga layoqatsiz odamdir.

Yomon xislatlarni yo'qotishga faollik bilan kirishmasdan, o'zida ularning borligiga iqrор boMishning o'zigina kifoya qilmaydi. Iqrор boMish zaif iroda va xarakterning mavjudligidan dalolat beradi, xolos. Bunda tashabbuskorlik va iroda kuchini ham ishga solish kerak.

Maktab o'quvchisi xarakterining tarkib topishida o'z-o'zini tarbiyalash katta o'rin egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan atrofдagi odamlarning ta'siri va awalo pedagogning ta'siri ostida tugiladi va taraqqiy etadi. Tarbiyaviy ish o'sib kelayotgan yosh avlodda, jumladan o'z xarakterida muayyan ijobiy xislatlarni o'zi tarbiyalash zaruriyatini paydo qilish va o'stirish hamdir.

Ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar boshqa tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda bolalarga o'z kamchiliklarini bilib olish va bu kamchiliklarni yo'qotish uchun harakat qilish hamda o'zlarida ijobiy iroda va axloqiy sifatlarni paydo qilish ustida mashq qilish zarurligini uqtirishlari lozim.

O'z-o'zini tarbiyalashga intilishni paydo qilishda jamoaning roli katta. Ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri tomonga qo'yilgan taqdirda o'rta yoshdagi maktab davriningbirinchi yillaridayoq o'quvchilarda o'z xarakterini o'zi tarbiyalashga intilish istagi sezilarli ravishda ko'rina boshlaydi.

O'smirlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida kishi shaxsiga xos boMgan yaxshi fazilatlarini o'zlarida paydo qilish masalasi tugMladi.

O'smirlar ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay, balki har bir ishni o'z xohlaganlaricha qilishga, mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar. Albatta, bu davrda ham bolalarda mustaqillikni uyg'otish va uni qo'llabquwatlash bilan birga pedagoglar bola shaxsining tarkib topishi jarayonida ulami doim joyiga solib turishlari kerak boradi.

Katta yoshdagi maktab bolalari axloq va xarakterning ijobiy xislatlarito'g'risidagi masalalar bilan juda ham qiziqadilnr. Yigit va qizlarimiz kuchli va mustahkam irodaga ega bomishni istaydilar va shuning uchun ham ular, odatda, o'z iroda va xarakterlarini tarbiyalash hamda o'zlarida iroda va xaktertarbiyalab yetkazish masalalari bilan juda ham qiziqadilnr. Ular iroda, xakterni o'stirish masalalariga oid ma'ruzalar tinglashni va suhbatlar o'tkazishni, shu masalalarga oid adabiyotlar o'qish va munozaralar o'tkazishni sevadilar.

Yigit va qizlarimiz, qat'iyat, sabot-matonat va qiyinchiliklarni bartaraf qilish, tamoyillik, dovyuraklik singari xarakter xislatlarini o'zlarida tarbiyalab yetkazishga harakat qiladilar.

Xarakterning irodaviy sifatlari tarkib topishida maktab o'quvchilari qiziqishlarining o'sishi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik yigit va qizlarda yuqori sinflarda o'qiyotgan davrlarida muayyan hayot ideallari bunyodga keladi, ular o'zlarining bo'lg'usi kasblarini tanlab oladilar. Bu qiziqish va g'oyalr sabot-matonatning o'sishiga, jasurlik, tashabbuskorlik, subutilik kabi irodaviy sifatlarning taraqqiy etishiga imkon beradi.

O'quvchilarda xarakterning ijobiy irodaviy va axloqiy sifatlari tarkib topishiga ularning dunyoqarashlari, jumladan axloq tamoyillarini puxta egallab olishlari katta ta'sir ko'rsatadi. Agar odam o'zining kundalik kayfiyatlari va xatti-harakatlarini ana shu tamoyillar asosida baholab borsa, unda o'z faoliyatini o'zi baholash tufayli xarakterning tegishli belgilari ham tarkib topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006.
2. Z. Nishanova va boshq. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Darslik. Toshkent, 2017.
3. P. Yusupova. Maktabgacha pedagogika. —T.: O'qituvchi, 1993.
4. Дьяченко О.М. Особенности развития воображения умственно-одаренных детей. — М., 2005 г.
5. Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy tahriri ostida. T., 1992.
6. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. T., 1994.